

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ulashova Sevinch Ulash qizi</i> CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN	8-13
<i>Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li</i> "XITOIY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI	14-18
<i>Dexkanov Narimon Burxonjonovich</i> ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI	19-22
<i>Saparbayeva Aziza Asror qizi</i> SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI	23-28

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	29-34
<i>Utkirov Anvar Utkirovich</i> KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI	35-44

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	45-52
<i>Rahmonova Feruza Bahromjon qizi</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO'LI SIFATIDA	53-58
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI	59-64

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI	65-73
<i>Hikmatova Nigina Akmalovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI	74-79
<i>Sultanova Xurshida Uktamjanovna</i> PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA)	80-86

<i>Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi</i> XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI QIYOSIY O'RGANISH	87-91
--	-------

<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna</i> J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	92-96
---	-------

<i>Miraxmedova Zilola Erkinovna</i> EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI	97-101
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Абдуолимов Уринбой Худобердиевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ	102-110
--	---------

<i>Алишаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУҚМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ	111-119
---	---------

<i>Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o'g'li</i> OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO'RAYEVLAR OILASI MISOLIDA)	120-124
--	---------

<i>Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna</i> KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT	125-135
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Rashidova Oynisa Xusniddin qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	136-140
--	---------

<i>Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi</i> DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH	141-146
---	---------

<i>Ганнаров Захид Ганнарович</i> ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СИНХРОНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЙ В СИНХРОННОМ ПЛАВАНИИ	147-153
---	---------

<i>Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna</i> TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI	154-159
---	---------

Received: 10 July 2024
Accepted: 15 July 2024
Published: 25 July 2024

Article / Original Paper

THE HISTORICAL SIGNIFICANCE OF UZBEKISTAN'S PARTICIPATION IN THE ORGANIZATION OF THE "CHINA-UZBEKISTAN-KYRGYZSTAN" TRANSPORT CORRIDOR

Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li

Doctoral student of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan
umarali.gulmatov@mail.ru

Abstract. This article reveals the role and importance of Uzbekistan in the construction of the China-Kyrgyzstan-Uzbekistan multimodal road, which is one of the important transport projects, based on various analyses. It is important that this road is built on the basis of the "One place, one road" project and the active participation of the Republic in it. After all, this transport corridor is considered a modern form of the ancient Great Silk Road and serves as an indispensable economic and social bridge between Asian and European countries. In addition, opinions on positive and negative situations, problems and solutions in the organization of this project were also expressed.

Key words: "One place, one road", "Great Silk Road", "China-Kyrgyzstan-Uzbekistan" transport corridor, multimodal transport corridor, railway transport, car transport.

"XITOY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI

Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada muhim transport loyihalaridan biri bo'lgan "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" multimodal yo'lining barpo etilishida O'zbekistonning o'rni va ahamiyatini turli tahlillar asosida ochib berilgan. Ushbu yo'l "Bir makon, bir yo'l" loyihasi asosida olib borilishi va unda Respublikaning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Negaki, mazkur transport yo'lagi qadimgi Buyuk ipak yo'lining zamonaviy shakli hisoblanib, Osiyo hamda Yevropa davlatlari o'rtasida mustaham iqtisodiy-ijtimoiy ko'priq vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, mazkur loyihani tashkil etishdagi ijobiy va salbiy holatlar, muammolar va yechimlar to'g'risida ham fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: "Bir makon, bir yo'l", "Buyuk ipak yo'li", "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" transport koridori, multimodal transport yo'lagi, temir yo'l transporti, avtomobil transporti,

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N02>

Kirish. Respublika logistika tizimi mustaqillikka erishgunimizcha va undan keyingi davrda ham asosan, ichki bozorga yo'naltirilgan edi. Shundan kelib chiqib, mazkur tizim korxonalar o'rtasida bir yoqlama rivojlana bordi. Negaki, bu davrda mamlakatimiz xalqaro transport yo'laklaridan faqatgina shimoliy yo'nalishda foydalanar, qolgan yo'nalishlarda – janubiy, g'arbiy va sharqiy transport yo'laklarida avtomobil va temir yo'l transporti bilan iqtisodiy aloqa qilishning imokoni yo'q edi. Xalqaro iqtisodiy aloqlarni yanada rivojlantirish

maqsadida mavjud barcha yo'nalishlardagi transport yo'laklarida faol qatnashish transport tizimini rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Transport tizimida xalqaro aloqalar masalasi bo'yicha bir qator olimlar izlanishlar olib borishgan. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarida T.Abdurahmonov[1,3], Sh.Nazarov[4,4], F.Arziyev[2,1] kabi o'zbekistonlik olimlar mazkur muammoni tadqiq qilgan bo'lsa, keyinchalik M.B.Olko[7,104] A.Taksanov[9,40-41] kabi xorijiy tadqiqotchilar mavzu bo'yicha o'z qarashlarini bildirib o'tganlar.

Mazkur izlanuvchilar nafaqat O'zbekistonning xalqaro aloqalardagi o'rni, balki Markaziy Osiyo davlatlarining bu borada olib borayotgan qator islohotlarini chuqur tahlil orqali o'rganishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yaqin davrlargacha O'zbekistonning transport-logistika salohiyati anchayin cheklangan bo'lib, mamlakatimiz tashqi iqtisodiy aloqalarini uchta dengiz porti – Ilichevsk (Qora dengizga chiqish – 3000 km), Sankt-Peterburg (Boltiq dengiziga chiqish imkoniyati bilan – 4300 km) va Vladivostok (Uzoq Sharq portlariga chiqish imkoniyati bilan – 8000 km) orqali amalga oshirishi mumkin edi. Ushbu portlarga uzoq masofani bosib o'tish yuk tashish narxini keskin darajada oshirardi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mamlakatdagi transport bilan bog'liq bo'lgan quyidagi muammolarni aniqlash mumkin:

- avtomobil transporti uchun: qoniqarli texnik holatda bo'lgan yo'llarning yetarli darajada mavjud emasligi, buning natijasida tezlik sekinlashadi va tranzit vaqtlari ko'payadi, yo'l o'tkazuvchanligining cheklanganligiga olib keladi;

- temir yo'l transporti uchun: eskirgan harakat tarkibining mavjudligi va yo'nalishlardan noto'g'ri foydalanish natijasida yuklarning kechikishi, olingan vagonlarni foydalanuvchilar tomonidan o'z vaqtida qaytarilmaslik, temir yo'l o'tkazuvchanligining cheklanganligi, infratuzilmaning sekin yangilanishi;

- havo transporti uchun: tashuvning noqulayligi, katta xarajat sarflanishi, kam daromad olinishi va boshqa masalalar.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqqan holda milliy transport tiziminining xalqaro maydonda iqtisodiy o'rnini oshirish maqsadida O'zbekiston ham hududga bog'liq ko'plab transport loyihalarida ishtirok etmoqda.

Muhokama va natijalar. 2017-yil may oyida Sh.Mirziyoevning Xitoyda bo'lib o'tgan "Bir makon, bir yo'l" forumidagi ishtiroki "Toshkent-Andijon-O'sh-Irkishtom-Qashg'ar" avtomobil yo'lining ochilishiga turtki bo'ldi. Natijada, 2017-yilning 30-oktyabr kuni loyiha yakuniga yetib yo'lning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. 2018-yil 25-fevral sanasida uzunligi 900 kilomterdan ortiq Toshkent-Andijon-O'sh-Irkishtom-Qoshg'ar avtomobil yo'li o'z faoliyatini boshladi.Avtomagistralning ishga tushishi Xitoygacha bo'lgan masofani ikki kungacha qisqartiradi. Qolaversa, temir yo'l (Toshkent-Olmaota-Oltinko'l-Xorgos) orqali harakat qilinganda, tashish xarajati 2600 dollarni tashkil etardi. Mazkur avtoyo'lida xarajatlar 20%gacha qisqardi[9,2].

Mazkur loyihaning mantiqiy davomi sifatida "Bir makon, bir yo'l" transport yo'lagi Xitoy tomonidan taklif etilgan. Loyiha Markaziy Osiyo, Yevropa, Afrika mintaqasida joylashgan 60 dan ortiq mamlakatni o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi iqtisodiy yo'lak hisoblanadi. Mazkur loyiha ortidan O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yanada rivojlana bordi. 2017-yildagi Pekin Xalqaro Forumi doirasida ikki davlat o'rtasida 26 milliard dollarga teng

shartnomalar imzolandi[8,4]. Loyihaning bir qismi sifatida Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston o'rtasidagi temir yo'lining qurilishi ham muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, O'zbekiston hududida qadimdan mavjud bo'lgan xalqaro savdo yo'laklari bugungi kunda asosan, shimolga yo'naltirilgani yanada yirik muammolardan biri edi. Bu esa, janubiy hududlarda transport yo'laklarining rivojlanmay qolishi, ushbu yo'nalish bo'ylab manfaatdorlik hissasi sezilarli darajada kamayib ketishiga olib kelardi.

Mazkur dastur asosida 1997-yilda O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy davlatlari rahbarlarining kelishuvi asosida shu mamlakatlar yo'nalishi bo'ylab temir yo'l o'tkazilishi rejalashtirilgan edi. 2001-yilda hukumatlararo mumorandum imzolandi. Yo'l qurilishi 2010-yilgacha qurib bitkazilishi kerak edi. Biroq, iqtisodiy-siyosiy asoslarni yaratishdagi kamchiliklar tufayli loyiha muddati cho'zilib ketdi.

Loyihaning uzoq vaqtdan beri ishga tushirilmaganiga bir qator sabablarni keltirish mumkin:

1) Temir yo'l o'tadigan hududning geografik jihatdan noqulayligi. Temir yo'lining katta qismi O'zbekiston va Qirg'izistonda joylashgan tog'li hududlardan o'tishi uchun 300 ga yaqin tunnel va ko'priklar qurishga to'g'ri keladi[5,155]. Bu esa katta sarf-xarajat va mashaqqatli mehnatni talab qiladi.

2) Mazkur loyihani amalga oshirishda Qirg'izistonning iqtisodiy va texnik imkoniyatlari cheklanganligi ham katta muammo tug'dirishi mumkin. Temir yo'lining eng katta qismi ushbu davlat hududiga to'g'ri kelib, uzunligi 256 kilometrli yo'lni barpo qilish uchun taxminan 1,5 milliard dollar miqdorda mablag' talab qilinadi. Shunga qaramay, Qirg'iziston loyihaning asosiy qatnashchilaridan hisoblanib, har yili tranzitning o'zidan 200-280 million dollar miqdorida foyda olishi mumkin.

3) Mazkur temir yo'lining muqobil 2 varianti mavjudligi muammoli vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin:[7,86]

1-yo'nalish – Janubiy (Andijon-O'sh-Saritosh-Irkishtom-Qashg'ar). O'zbekiston mazkur yo'nalish tarafdori. Negaki, Andijondan O'shgacha temir yo'l o'tgan bo'lib, ortiqcha xarajat talab qilmaydi.

2-yo'nalish – shimoliy (Andijon-Jalolobod-To'rug'art-Qashg'ar). Qirg'izistonning markaziy hududlaridan o'tganligi uchun mazkur yo'nalish qo'shnilarimiz uchun ma'qul hisoblanadi. Bundan tashqari, Shimoliy yo'nalishning qiyalik burchagi Janubiy yo'nalishning qiyaligidan pastroq hisoblanadi. Qolaversa, Xitoy hukumati ham mazkur yo'nalish Qirg'izistonning manfaatlariga to'g'ri kelishini ta'kidlab, choralar ko'rishinni ma'lum qildi.

4) Xitoyning ayrim mutaxassislari temir yo'l barpo qilinishidagi asosiy muammolar sifatida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegaraviy muammolarni ham kiritishmoqda. Qolaversa, XXR hukumati loyiha ishga tushgach, Markaziy Osiyoning SUAR (Sinszyan-Uyg'ur avtonom rayoni)ga ta'siri ortishidan xavotirda.

5) Xitoy va Qirg'iziston o'rtasidagi yo'l izlarining kengligi borasida ham kelishmovchiliklar mavjud. Xitoy – "Evropa standarti" (1435 mm) tarafdori bo'lsa, Qirg'iziston – "Rossiya standarti" (1520 mm) tarafdori hisoblanadi[7,86]. Ma'lumot o'rnida, butun Markaziy Osiyodagi temir yo'llar Rossiya standarti bo'yicha qurilgan.

2022-yil 15-16-sentabr sanalarida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Samarqand sammiti o'tkazildi. Ushbu sammit doirasida tashkilotga a'zo davlatlarning xalqaro iqtisodiy tarmoqlari, transport va tranzit yo'laklarini o'zaro manfaat asosida birlashtirishga qaratilgan

muhim hujjat – “O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy” temir yo‘li qurilishi loyihasi bo‘yicha uch tomonlama hamkorlik bitimi imzolandi[1,3]. Mazkur temir yo‘l qurilishi loyihasining amalga oshirilishi mamlakatlar o‘rtasida yagona transport tarmog‘ini yaratishda muhim omil bo‘ladi. Xitoydan O‘zbekiston orqali Yevropaning bir qator davlatlariga va Janubiy koridor bo‘ylab Fors ko‘rfazi davlatlariga tashuvlarni amalga oshirish esa o‘z navbatida, Janubiy-Sharqiy Osiyo, O‘rta Osiyo va Yevropa mintaqalarini o‘zaro bog‘lash imkonini beradi. O‘zbekistonning tranzit salohiyatini yanada oshirib, savdo geografiyasini kengaytiradi.

“Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston” temir yo‘lining barpo etilishi davlatlarning savdo-tranzit imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, savdo aloqalarini kengaytirish va yangi bozorlarga chiqishda juda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur bitim loyihasiga ko‘ra, 2023-yilning birinchi yarmigacha yangi temir yo‘lining texnik va iqtisodiy asoslari ishlab chiqilishi lozim bo‘lib, loyiha taxminan, 3-5 milliard dollarga baholangan[6].

Ta’kidlash joizki, ushbu loyihani amalga oshirish deyarli 20 yildan ortiq davr mobaynida rejalashtirilayotgan bo‘lib, yakuniy qarorga kelinmayotgan edi. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoevning tashabbusi bilan ShHT sammiti doirasida ulkan rejani amalga oshirish uchun yakdil qarorga kelindi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, temir yo‘l qurilganidan so‘ng bu yo‘nalishlardan o‘tadigan yuklar miqdori 5 million tonnadan 10 million tonnagacha yetishi kutilmoqda[2,39]. Mazkur loyiha amalga oshadigan bo‘lsa, “Transsibir” magistrali (Rossiya orqali) hamda “G‘arbiy Xitoy – G‘arbiy Yevropa” magistraliga (Qozog‘iston va Rossiya orqali) raqobatchi transport yo‘lagiga aylanadi. Ayni paytda “Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘l loyihasi “Transsibir” yo‘lidan 3 ming kilometr, “G‘arbiy Xitoy – G‘arbiy Yevropa” yo‘lidan esa 1,5 ming kilometrqa qisqaligi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, mazkur yo‘l tarmog‘i orqali yuklarni tez, arzon va sifatli holda yetkazib berish imkoniyati ham paydo bo‘ladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur loyiha ishga tushishi Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga milliy mahsulotlarimizning eksport hajmi 10-15%ga oshishi kutilmoqda. Qolaversa, ushbu temir yo‘l Sariq dengizi bandargohlarigacha bo‘lgan masofani 1100 kilometr gacha qisqartiradi. Shuningdek, mazkur magistral orqali Pokistonning Karachi dengiziga chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi[5,153].

Mazkur loyiha natijasi o‘laroq, 2022-yil 15-16-sentyabarda Samarqandda bo‘lib o‘tgan sammitda Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston hududlarini birlashtiruvchi temir yo‘l qurilishi masalasi bo‘yicha uch tomonlama shartnoma imzolandi. Shartnomaning umumiy qiymati 15 milliard AQSh dollari miqdoridagi hujjatlar to‘plamidan iborat edi. Ushbu temir yo‘l faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi Xitoydan Janubiy Yevropagacha bo‘lgan masofaning kamayishi, buning natijasida katta vaqt tejali, tranzit-savdo uchun katta imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida, “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusining amalga oshirilishi yo‘lida yangi bosqich bo‘ladi[4].

Bunday hamkorlikni Gruziya va Ozarbayjon bilan ham yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Baku bandargohida o‘z terminalini ochishni rejalashtirmoqda. Mazkur terminal mamlakatimizga shakar hamda boshqa eksport mahsulotlari savdosida muhim o‘rin egallaydi. Ayni paytda Baku porti O‘zbekistonning yuk ombori vazifasini ham bajarishi ko‘zda tutilgan. 2023-yilda Ozarbayjon va Gruziya orqali tashiladigan yuk hajmi 1,5 million tonnagacha yetishi kutilmoqda. Ushbu yo‘nalishni rivojlantirishdan yana bir bosh maqsad – Trans-Kaspiy xalqaro transport yo‘li salohiyatini oshirish hamda Xitoy-Janubiy Yevropa multimodal yo‘lida asosiy tayanch vazifalaridan biri bo‘lishlikdir[3].

Xulosa. Ko‘rib o‘tilganidek, O‘zbekiston hukumati mustaqillik yillarida xalqaro transport aloqalarini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishda muhim jarayonlarni bosib o‘tdi. Bu borada respublikamizning o‘zaro teng huquqli va teng manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq tinchliksevar tashqi siyosati yo‘nalishlari amalda o‘z tasdig‘ini topdi. Transport tizimi bilan bog‘liq xalqaro hamkorlikdagi muammolar esa u yoki bu davlatning transport sohasidagi siyosati bilan bog‘liq bo‘ldi. Mustaqillikka erishganiga ko‘p bo‘lmagan O‘zbekistonning yosh davlat sifatidagi o‘rni jahon iqtisodiy hamjamiyati oldida yanada mustahkamlanmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Choriyev J. Yangi transport koridorlari mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytiradi: (O‘zbekiston Transport vaziri o‘rinbosari bilan suhbat) // Yangi O‘zbekiston, 2022-yil 17-sentabr, 191-son.
2. H.Xasilov boshchiligida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ xodimlari. O‘zbekiston temir yo‘llarining 30 yillik tarixiy yo‘li. Kitob-albom. T.: “Color Pack”, 2022. B.38.
3. O‘zbekiston Boku portida o‘z terminalini ochishni rejalashtirimoqda // Yangi O‘zbekiston // 2023-yil, 18-may. 96-son.
4. O‘zbekiston-Xitoy: ko‘p asrlik do‘stlik rishtalari yanada mustahkamlanadi // Xalq so‘zi // 2022-yil, 16-sentabr. 202-son.
5. Зоҳидов, А. А. Марказий Осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизминини такомиллаштириш : иқтисодиёт фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 2018.
6. Масалиева Ж. Строительство железной дороги Китай — Кыргызстан — Узбекистан: ТЭО готово // 24.kg 28.04.2023.
7. Логистические процессы и морские магистрали II. Мастер плана «LOGMOS» - Приложения 5. 2014 г.
8. Хидиров Қ. Бир макон, бир йўл – халқаро ҳамкорликнинг янги модели. // Халқ сўзи. 2018 йил 15 май. 98-сон.
9. Шеркулов Р. Буюк ипак йўли бўйлаб // Халқ сўзи. 2017 йил 31 октябрь . 219 сон.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).